



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

ERTAKLARDA SEHRLI SONLARNING EPIK KO‘LAMNI IFODALASH XUSUSIYATLARI

Sayfiddinova Munisxon Fahriddin qizi

Turan International University, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek va ingliz xalq ertaklaridagi sehrli sonlarning (3, 7, 9, 12, 40) epik ko‘lamni ifodalashdagi o‘rni tahlil qilingan. Sehrli sonlarning epik makon, zamon, miqdor va takrori shakllantirishdagi lingvopoetik xususiyatlari qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida sehrli sonlar ertaklarda nafaqat miqdoriy ko‘rsatkich, balki syujetni tashkil etuvchi, ramziy ma’no yuklovchi va badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi muhim poetik vosita ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sehrli sonlar, xalq ertaklari, epik ko‘lam, epik makon, epik zamon, epik takror, lingvopoetika, folklor.

ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЭПИЧЕСКОГО МАСШТАБА ПОСРЕДСТВОМ МАГИЧЕСКИХ ЧИСЕЛ В СКАЗКАХ

Сайфиддинова Мунисхон Фахриддин кизи

Turan International University, преподаватель

Аннотация

В статье рассматривается роль магических чисел (3, 7, 9, 12 и 40) в выражении эпического масштаба в узбекских и английских народных сказках. Анализируются их функции в формировании эпического пространства, времени, количества и повтора. Установлено, что магические числа выступают не только количественными показателями, но и важными символическими и поэтическими средствами организации сюжета и усиления художественной выразительности сказок.

Ключевые слова: магические числа, народные сказки, эпический масштаб, эпическое пространство, эпическое время, эпический повтор, лингвопоэтика, фольклор.

THE ROLE OF MAGICAL NUMBERS IN REPRESENTING EPIC SCALE IN FAIRY TALES

Sayfiddinova Munisxon Fahriddin qizi

Turan International University, Lecturer

Abstract

The article examines the role of magical numbers (3, 7, 9, 12, and 40) in representing epic scale in Uzbek and English folk tales. The study analyzes their functions in shaping epic space, time, quantity, and repetition. The findings reveal that magical numbers serve not only as numerical indicators but also as symbolic and poetic devices that organize the plot and enhance the artistic impact of fairy tales.

Keywords: magical numbers, folk tales, epic scale, epic space, epic time, epic repetition, linguopoetics, folklore.

O‘zbek va ingliz xalq ertaklarida sehrli sonlar (3, 7, 9, 12 va 40) epik ko‘lamni shakllantiruvchi muhim lingvopoetik vositalar hisoblanadi. Ular ertak matnlarida aniq hisobni bildiruvchi ko‘rsatkichlar emas, balki badiiy makon, zamon, yo‘l, miqdor va takroriylik birliklarining umumlashtirilgan, ramziy tus olgan va mifopoetik darajaga ko‘tarilgan shakllarini ifodalab, ularni estetik jihatdan qayta ishlovchi muhim vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan ularni quyidagicha tizimlashtirish imkoni paydo bo‘ladi: 1) epik makon; 2) epik vaqt (zamon); 3) epik yo‘l (masofa) 4) epik miqdor; 5) epik takror (uchlik modeli). Ertaklarda mazkur

tizimlashtirish sonlarning ertaklar badiiyatini shakllantirishdagi qo'llanish chastotasining turlicha ekanligini ko'rsatadi.

An'anaviy uchlik tizimi ertaklarning poetik tizimidagi muhim komponentlardan biri sifatida ko'plab ertak namunalarida uchraydi. Taniqli folklorshunoslar A.Nikiforov va B.Propp o'z tadqiqotlarida an'anaviy uchlik sirini aniqlashga jiddiy e'tibor qaratganlar [5]. E.Taylor, F.Blekser, A.Borodin, O.Davidova, A.Xrolenkolar [9,10,11,12] qadimgi qabilalarda sanoq sistemasi uchta sondan iborat bo'lganligi, miqdoriy tushunchalarning so'ngisi 3 soni bilan yakunlanganligini ta'kidlashadi. V.Bogorazning yozishicha, "uchlik sanoq sistemasining oxiri bo'lib, u beshlik hisob-kitob usulidan ajratib turuvchi son" [1] deb qaralgan. Olim 3 soniga bo'lgan e'tiborni uning shu xususiyati bilan bog'laydi.

Sehrli sonlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda uchlik yo'l motivi, uch boshli obrazlar va syujet elementlarining uch marta takrorlanishi kabi sehrli uchlikka asoslangan murakkab semantik strukturalar tahlilga tortilgan. Ushbu nazariyalarning asoslariga tayanib, uchlikka asoslangan tuzilish arxaik mifologiyaning mahsuli deb hisoblash mumkin. Uchlikka asoslangan o'zbek xalq ertaklarida uch yo'l motivi sifatida Ko'k – tangri, ruhlar makoniga (borsa kelar), Zamin – insonlar diyori (borsa xatar) ga va Yer osti – yovuz kuchlar, o'liklar diyori (borsa kelmas) kabi epik makonlarga ishora qiladi. Bunda an'anaviy tarzda Kenja botir borsa kelmas makoniga borishi, muvaffaqiyat qozonishi ajdodlar kulti bilan bog'lanishi ularning ruhi madadkor va ko'makchi bo'lishi M.Jo'rayev [15] tadqiqotlarida uchraydi. Masalan, "Tohir va Zuhra" [17] ertagida Tohir sevgilisi Zuhradan ayrilib, boshqa yurtning podshohining qiziga uylanishdan bosh tortib, karvon bilan yo'lga tushadi va yurib-yurib bir joyga kelishsa, qarshilaridan *uch yo'l* (borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas) chiqadi. Epik an'anaga binoan Zuhraga tezroq yetish maqsadida Tohir xatarli bo'lsa-da, "borsa kelmas" yo'lini tanlaydi. Lekin yo'lda *qirq qaroqchilar* to'dasiga duch kelib, zindonband bo'ladilar. Sehrli ertaklardagi mifologik yordamchi obraz sifatida keltirilgan qaroqchilarning biri Tohirning maktabdosh do'sti Tohirni ozod qiladi. Tohir esa yo'lida davom etadi. Shuningdek, "Bulbuligo'yo" [2, 97–111.] ertagida ham uch yo'l motivi mavjud. Ertakda podshoh tilla daraxtidan kim o'g'irlayotganini bilishni xohlaydi. Uning uch o'g'ildan kattasi ham, o'rtanchasi ham kechasi poyloqchilik qilayotganida uxlab qolishadi va zindonband bo'lishadi. Kenja o'g'il esa, uxlamaslik uchun jimjilog'ini kesib, tuz-qalampir sepadi va bu ishni bulbuligo'yo qushi qilayotganini aniqlaydi. Bu qushni olib kelish uchun uch aka-ukalar yo'lga ravona bo'ladilar. Epik an'anaga ko'ra ularning qarshisidan *uch yo'l keladi*: "Borsa kelar", "Borsa xatar" va "Borsa kelmas". Katta akasining joni bo'shroq ekan, borsa kelarni tanlaydi, o'rtanchasi ham borsa xatar xavfli deb akasiga qo'shilib oladi. Kenja o'g'il esa, "Borsa kelmas"ga qarab jo'naydi. Yo'lda kenja botir ko'makchi, homiy maymun pariga duch kelib uning yordami bilan uch sinovli bosqichdan o'tib, bulbuligo'yoga, uchar otga va malikaga ega bo'ladi.

Ingliz xalq ertaklarida ham sehrli sonlar ertaklarning epik ko'lamini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Sonlar badiiy makon, zamon va obrazlarning tilsimlashtirilishida ularga ramziylik va sehrlilik tusini berishda namoyon bo'ladi. Xususan, 3 soni kompozitsion qurilishni (three times, three brothers, three tasks), 7 soni mukammallik, ilohiylikni (seven years, seven dwarfs), 12 soni esa siklik vaqt va kosmik tartibni (twelve princesses, twelve months) bildirib, sonlar orqali real emas, ramziy model yaratiladi.

Masalan, "Ismsiz yigit" [4, 12–14.] ("Nix Nought Nothing") ingliz xalq ertagida sehrli sonlar ertakning epik ko'lamini shakllantirishda muhim vosita sifatida qo'llangan. Ertakda 3 soni bilan bog'liq birikmalar uchraydi. Jumladan, podshohning ko'ldan o'tishiga yordam bergan devga uch bor so'ralgan bolaning taqdim etilishi. Devning Ismsiz yigitga uch shart aytganligi. Masalan, "I've work for you tomorrow. There is a stable seven miles long and seven miles broad, and it has not been cleaned for seven years (epik makon va zamon), and you must clean it tomorrow, or I will have you for my supper". – "Ertaga sen uchun ish bor. Uzunligi yetti mil, kengligi yetti mil bo'lgan otxona bor, u yetti yildan beri tozalanmagan. Sen uni ertaga tozalashing kerak, aks holda seni kechki ovqatim qilib yeyman." ... Ikkinchi sharti: "There's a lake seven miles long, and seven miles deep, and seven miles broad (epik makon), and you must drain it tomorrow by nightfall, or

else I'll have you for my supper." – "Uzunligi yetti mil, chuqurligi yetti mil va kengligi yetti mil bo'lgan ko'l bor. Sen uni ertaga kechgacha quritishing kerak, aks holda seni kechki ovqatim qilib yeyman." ... Uchinchi sharti: "I've a worse job for you tomorrow; there is a tree, seven miles high (epik makon), and no branch on it, till you get to the top, and there is a nest with seven eggs (epik miqdor) in it, and you must bring down all the eggs without breaking one, or else I'll have you for my supper." – "Ertaga bundan ham og'irroq ish beraman. Yetti mil baland daraxt bor, uning tepasigacha shox-shabbasi yo'q. Eng tepasida esa ichida yettita tuxum bo'lgan uya bor. Sen barcha tuxumlarni bittasini ham sindirmasdan pastga tushirishing kerak, aks holda seni kechki ovqatim qilib yeyman." And they hadn't got but three fields away when they looked back and saw the giant walking along at top speed after them [4, 13]. – Ular hali atigi uchta dala nariga o'tishgan edi-ki, orqalariga qarab, devning juda tez yurib ularning ortidan kelayotganini ko'rib qolishdi. Ertakda 7 soni epik makonning kengaytirilgan, cheksiz va sinovli hudud ekanligini, bu orqali sinov amalga oshadigan makon murakkab va ko'p qatlamli ekanligini namoyon qiladi.

Epik zamon esa – xalq ertaklarida voqealar rivojlanadigan shartli vaqt tizimi bo'lib, aniqlikdan xoli, mifologik tafakkurga asoslangan va syujetning dinamik harakatini ta'minlovchi badiiy kategoriya hisoblanadi. Masalan, "Bulbuligo'yo" ertagida ham epik zamonni ifodalovchi sonli birliklar bir nechta o'rinlarda qo'llanilgan bo'lib, ular asosan, cho'zilgan vaqt, sinovning murakkablik darajasi va bo'rttirishni anglatadi. Chinorni yetti yilda tayyor qilibdilar. ...Podshoh qo'liga olib qarasa, bir tola qanot yetti yillik boji-xirojga arziydi. Oradan uch kun o'tibdi. – Bir tuz ichgan yerga qirq kun salom. To'qqiz oy deganda bir katta shaharga yetibdilar. ...To'qqiz kecha, to'qqiz kunduzda g'orni kovlab, bitirib chiqibdi...qirq kecha-yu qirq kunduz deganda maymun qaytib chiqib:... Jodugar bir uxlasa, qirq kecha-kunduz uxlaydi. Bir uxlamasa qirq kecha-kunduz uxlamaydi. ...Shahzoda ko'zini ochib ko'rsa, o'ttiz oylik yo'lni uch kunda uchib, ... Maymun pari shahzodani uch kun mehmon qilibdi. ...yetti yildan beri shu chinorning tagiga har kuni yetti marta kelaman. ... Uch kecha-kunduzdan keyin shahzoda ko'zini ochibdi. ...qirq kunda tuzatib tezlik bilan yuborasiz. Shahzoda qirq kunda sihat topib, ilgarigi husniga necha barobar husn qo'shib, parilar yurtidan qaytibdi. ...uch oy saqlabdi. Uch oyda bolaning sochi o'sib peshonasiga tushibdi. Qirq kun yurtga osh-non berib, malikaga uylanibdi. [2, 99-111]

Kenja botir sinov va mashaqqatlarni halol va jasurona yengib o'tgani bois ertakning nihoyasida sehrli qushga, malikaga va taxtga sazovor bo'ladi. Bu xususida folklorshunos Sh. Turdimov ertakning eng yaxshi qahramoniga nasib etuvchi tilla qushni – ruhiy bilim, malikani – ilohiy ishq timsoli [8], desa, J. Eshonqulov "Kenja botirning «borsa kelmas» yo'lidagi sarguzashtlari inson tafakkurining sarguzashtlari" [14, 76] deya to'g'ri ta'kidlaydi.

O'zbek xalq ertaklarida "qirq kecha-yu qirq kunduz" iborasi juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan poetik va ramziy vaqt formulalaridan hisoblanadi. Bu birikmaning qo'llanilishi folklor tafakkuri, diniy qarashlar va epik an'ana bilan bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi folklor kodi hisoblanadi. Bu ibora aniq hisobni emas, balki sinovdan keyingi mukofotni, baxtni, dabdabani mubolag'ali tarzda tasvirlaydi va muqaddas, to'liqlik davrini anglatadi. Masalan, "Ilon pari" ertagidan: Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha bilan pari qizga uylanibdi [6, 83]; "Sehrli shamchiroq" ertagidan: Podshoh o'z qizini qirq kun to'y-tomosha qilib Oloviddinga beribdi va ular baxtiyor hayot kechira boshlashibdi [6, 118]; "Dunyoda yo'q hunar" [6, 122–124] ertagida malikaga uylanmoqchi bo'lgan kambag'al cholning o'g'li hech kimda yo'q hunarni o'rganadi va podshoh uning hunariga qoyil qolib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib haligi yigitga qizini beribdi, shunday qilib yigit murod-maqsadiga yetibdi.

Ingliz xalq ertaklarida ham epik zamonni ifodalovchi sonli birliklar qo'llaniladi: ...and it has not been cleaned for seven years, and you must clean it tomorrow, or I will have you for my supper ("Nix Nought Nothing") [4, 12–14.] – va u yetti yildan beri tozalanmayotgan, sen uni ertaga tozalashing kerak, aks holda men seni kechki ovqatim uchun yeyman. Parchada mifopoetik zamon ifodasi seven years qahramonning chidamliligi va sinovdan o'tish jarayoni murakkabligini ifodalaydi.

Ertaklarda badiiy timsollarni (qirq qiz, uch og'a-ini botirlar) shakllantirishda ham ko'p

o‘rinlarda sehrli sonlarga murojaat qilinadi. Bu kabi epik miqdorni ifodalovchi sonli birliklar o‘zbek xalq ertaklarida asosan 40 va 3 sonlari (ba‘zan 7 soni ham), ingliz xalq ertaklarida esa asosan 3, 7 va ba‘zan 12 sonlari ertaklarning syujet qurilishiga, dramatik keskinlikni oshirishga va estetik ta’sirchanlikni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, ...Qirq yigitni qo‘liga qurol-aslaha berib poylatibdi.... Har kuni qirqtadan bosh kesaversangiz, shaharda odam qoladimi? Podshohning uch o‘g‘li bor edi. ...Podshoh qo‘liga olib qarasa, bir tola qanot yetti yillik boji-xirojga arziydi. ...Ikki o‘g‘li qirq tuyadan mol qilib, savdogar suratida bo‘lib, shahardan chiqib ketibdilar. Bu podshohning qizi bizga oshiq bo‘ldi, – deb gumon qilib, qirq tuya molni unga tuhfa qilibdilar. “Otam aytgan yetmish qavat parda ichidagi jonivor shumi yoki boshqami?” deb pardaning bir qavatini ko‘taribdi. ...Malika qirq kanizak o‘rtasida oydek bo‘lib o‘tiribdi. ...Zinadan chiqib, qirq hujradan o‘tib ravoqqa kirib ko‘rsa, qirq kanizak o‘rtasida bir malika dilorom o‘tiribdi... Shahzoda otning qulog‘ini uch marta qimirlatib qo‘yibdi. ...Malika qirq kanizaklarining ichida boshini ko‘tarmay, oltin qutisidan chiqmay yotaveribdi [2, 97–111].

Ingliz xalq ertaklarida ham epik kvantitativ birliklar keng qo‘llaniladi. Masalan, “Nix Nought Nothing” [4, 12–14.] ertagidagi “I’ve a worse job for you tomorrow; there is a tree, seven miles high and no branch on it, till you get to the top, and there is a nest with seven eggs in it, and you must bring down all the eggs without breaking one, or else I’ll have you for my supper.” – “Ertaga bundan ham og‘irroq ish beraman. Yetti mil baland daraxt bor, uning tepasigacha shox-shabbasi yo‘q. Eng tepasida esa ichida yettita tuxum bo‘lgan uya bor. Sen barcha tuxumlarni bittasini ham sindirmasdan pastga tushirishing kerak, aks holda seni kechki ovqatim qilib yeyman”. Balandligi yetti mil bo‘lgan, shoxlari bo‘lmagan daraxtdan seven eggs (yettita tuxum)ni sindirmay olib tushish sharti bo‘ladi va bu kabi mifopoetik timsollar sinovlarning murakkab va yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Epik takror (uchlik modeli) xalq ertaklarida voqealar, obrazlar yoki harakatlarning uch marta takrorlanishi orqali syujetni tashkil etuvchi badiiy-kompozitsion usuldir. U folklorda eng qadimiy va universal strukturaviy modellardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalq ertaklaridan “Ur to‘qmoq” [6] ertagida voqealar rivoji uch takror (repetition) modeliga asoslangan. Bir cholning tuzog‘iga laylaklarning podshohi Laylakvoy ilinadi. Yordami evaziga chol undan birinchisida “Qayna xumcha”, ikkinchisida “Ochil dasturxon” va uchinchisida “Ur to‘qmoq” sehrli buyumlarini Laylakvoydan oladi va uchinchi urinishda dushmanlari ayon bo‘lib, ular o‘z jazolarini olishadi. Bu o‘rinda uchinchi harakat yakuniy bosqichni ifodalaydi va haqiqat hamda adolatga erishiladi. Qolaversa, “Aqli, idrokli, zehnli” [16] nomli o‘zbek xalq ertagida ham uchlik modeli syujetning strukturaviy tartiblanishiga va ma’lum semantik maydonlarda didaktik g‘oyalarga asoslanib bog‘lanishiga xizmat qiladi. Markaziy obraz uch aka-uka hisoblanib, ular tafakkurning aql, idrok va zehn o‘tkirligini ifodalaydi: “O‘tgan zamonda bir boy yashagan ekan. Uning uch o‘g‘li bo‘lib, uchalasi ham zo‘r bilimdon ekan. Kunlardan bir kuni mo‘ysafid ota betob bo‘lib yotib qolibdi. U uchala bolasini oldiga chaqirib, nasihat qilibdi: – Bolalarim, agar qazom yetib o‘lsam, bog‘dagi katta uzumning tagiga har biri otning kallasidek keladigan uchta oltin ko‘mganman. Shuni uchalang boshqa shaharga olib borib, bo‘lishib olinglar”. Bu orqali uchlik aka-ukalar bilimining bosqichma-bosqich mukammallasuvi modeli hisoblanadi. Ertakda uchta oltin motivi ertak syujetini harakatga keltiruvchi omil hisoblanadi. Uchinchi oltinning yo‘qligi konfliktning boshlanishiga olib keladi va qahramonlarni sinovdan o‘tkazadi. Tuya voqeasidagi uchta taxmin esa uch aka-ukaning idrokini tekshiradi: “kuzatish – tahlil – umumlashtirish” bosqichlarini ifodalaydi. Qozining sinovida ham uch bosqichli sinov modeli takrorlanadi: “umumiy belgi – aniqlashtirish – xulosa”ni o‘z ichiga oladi. Uzum haqidagi sinovda esa uchta fikr “makon – vaqt – sifat” kabi birliklarni namoyon qilib, borliqni to‘la tasvirlashga undagan. Umuman olganda, ertakdagi uchlik tasodifiy son emas, balki folklor tafakkurining muhim modeli bo‘lib, voqealarni tizimlashtirish, ma’noni chuqurlashtirish, qolaversa, didaktik g‘oyani yetkazishga xizmat qilgan.

Ingliz xalq ertaklaridan “The Story of the Little Three Pigs” [3, 5–11] – (Kichik uch cho‘chqaning hikoyasi) ertagi uchlik struktura modelida qurilib, uch qismda uchlik takroriy

sinovlar bosqichi yoritiladi. Masalan, ertakda uchta cho‘chqa miqdoriy ko‘rsatkichni emas, balki ierarxik tartibni bildiradi, bunda sodda va ehtiyotsiz to‘ng‘ichi somondan uy quradi va bo‘rining bir puflashida uyi uchib, o‘zi unga yem bo‘ladi. Qisman ehtiyotkor bo‘lgan ikkinchisi esa shox-shabbdan uy quradi, lekin u ham bo‘rining hujumiga uchrab, uyi buziladi va bo‘ri bu cho‘chqani yeydi. Uchinchi cho‘chqacha esa g‘ishtdan mustahkam uy quradi va bo‘ri qancha urinmasin, uyini buza olmaydi, qolaversa, bo‘ri uni uch marotaba hiyla bilan qo‘lga tushirishga harakat qiladi, lekin cho‘chqacha har safar oqilligi sabab undan omon qoladi va oxiri bo‘ri mo‘ridan tushayotganda qaynoq qozonga tushib, cho‘chqachaga ovqat bo‘ladi. Ertakdagi bo‘rining kelishi va tahdidi, uylarni buzishga urinishi hamda qahramon bilan qarshiligi uch marotaba takrorlanadi, lekin har takror oldingisidan murakkabroq bo‘lib, dramatik keskinlikni oshiradi va kulminatsiyaga olib keladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, sehrli sonlar (3, 7, 9, 12, 40) ertaklarning muhim tarkibiy komponentlari hisoblanib, ularning badiiy ko‘lamini shakllantirishda asosiy lingvopoetik mexanizm hisoblanadi. Sehrli sonlar yordamida ramziylashtirilgan epik makon yaratiladi, “uch yo‘l”, “yetti qat”, “qirq kunlik yo‘l” kabi birliklar orqali makon kengaytiriladi, mifologik va sinovli xarakterga ega tarzda tasvirlanib, makonni semantik maydonga aylantiradi. “Uch kun”, “yetti yil”, “qirq kun” kabi birliklar orqali aniq xronologiya emas, balki epik zamonning shartli va mifopoetik modeli tasvirlanib, cho‘zilgan, sinoviy va transformatsion davrni aks ettiradi. Epik miqdorda “qirq qiz”, “uch og‘a-ini” kabi birliklar obrazlarning aniq sonini emas, balki ularga mubolag‘aviy, ekspressiv yuklamaga ega tarzda ifodalovchi birliklar sifatida qo‘llanib, ko‘plik, ulug‘vorlik, qudrat va umumlashtirish ma‘nolarini beradi. Ertaklarda ayniqsa uchlik (trixotomik) model yetakchi strukturaviy prinsip ekanligi aniqlandi. “Uch shart”, “uch yo‘l”, “uch urinish” kabi takroriy konstruksiyalar syujetni tartiblashtiradi, dramatik keskinlikni oshirib, uchinchi bosqichda qiyinchilik yoki muammoga yechimni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Богораз В. Г. Христианство в свете этнографии. – Л.: Прибой, 1928. – 216 с.
2. Bulbuligo‘yo ertagi // O‘zbek xalq ertaklari. Jild 1 / tuzuvchilar: M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova; mas‘ul muharrir M. Mahmudov. 2-nashr. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 97–112.
3. Ingliz xalq ertaklari / tarjimon R. Otaboyeva, rassom L. Basharova. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 5–11. (Matn o‘zbek va ingliz tillarida).
4. Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1894. – P. 12–14.
5. Никифоров А. И. Структура чукотской сказки как явление примитивного мышления // Советский фольклор. – 1936. – № 2–3. – С. 269–286.
6. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 152 b.
7. Пропп В. Я. Фольклор и действительность. – Москва: Наука, 1976. – 325 с.
8. Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina // Tafakkur. – Toshkent, 2015. – № 3. – B. 94–103.
9. Тейлор Э. Б. Первобытная культура. Т. 1. – Санкт-Петербург, 1896. – С. 234.
10. Хроленко А. Т. Поэтическая фразеология русской народной лирической песни. – Воронеж, 1981. – С. 130–131.
11. Давыдова О. А. Числительные в русских пословицах и поговорках // Специфика фольклорной лексики и фразеологии. – Курск, 1978.
12. Блексер Ф. Н. Число и счёт: дисс. ... канд. пед. наук. – Москва, 1946 (рукопись). – С. 48–49.
13. Бородин А. И. Число и мистика. – Донецк, 1975. – С. 91.
14. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. – B. 76.
15. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklaridagi «sehrli» raqamlar. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 59.
16. Aqlli, idrokli, zehnli. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/aqlli-idrokli-zehnli>
17. Tohir va Zuhra (xalq ertaklari turkumidan). URL: https://uzbekliterature.uz/sites/default/files/tohir_va_zuxra_xalq_ertaklari_turkumidan.pdf